



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMI

140157, Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy. Tel.: (66) 2304270, 2312093, e-mail: samarkand@exat.uz, info@samarkand.uz

**Республика ва маҳаллий ижро этувчи Ҳокимият органларида  
раҳбар кадрларнинг ўзаро тажриба алмашиши ва замонавий  
иш услубларини ўргатишга Қаратилган чора-тадбирлар  
тўғрисида  
ID-4452 (V-1)**

## TAKLIF VA E'TIROZLAR

### 1. Loyiha bo'yicha umumiy taklif va e'tirozlar quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-223-sonli Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida Agentlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida rahbar kadrlarning o‘zaro tajriba almashishi va zamonaviy ish uslublarini o‘rgatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror loyihasi (ID-4452(V-1)) yuzasidan Samarqand viloyati hokimligi quyidagi takliflarni taklif etadi. 1. Sektorlar faoliyatini sifat jihatidan yaxshilash, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sektorlar shtabi a’zolarining ishlash tizimini takomillashtirish, sektor hududidagi mahallalar faollari bilan sektor shtabi o‘rtasida hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligiga qaratilgan seminarlar tashkil etish; 2. Mahallalarda mahalla raislari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollarining ish samaradorligini oshirish hamda tajriba almashish maqsadida o‘quv-seminarlar tashkil etish.

---

Viloyat hokimi v.v.b.



ABILOV FERUZ  
NEMATULLAYEVICH  
15-Yanvar 2025-yil